

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

«ODIL YOQUBOV NASRIDA QAHRAMON XARAKTERI»

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O‘zbek filologiyasi» bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi
Atabaeva Iroda_____

ILMIY RAHBAR:
f.f.n., dots. Duysenbayev O_____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
____-sonli bayonnomasi «____» may 2014-yil

Nukus- 2014

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOIYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Duysenbayev O.

DAK Q A R O R I:

**ATABAEVA IRODAning «ODIL YOQUBOV NASRIDA
QAHRAMON XARAKTERI»** mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat
attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » ball qo'yilsin.

DAK kotibi:	Qlichev N.
--------------------	-------------------

«_____»_____2014-yil

MAVZU: Odil Yoqubov nasrida qahramon xarakteri

R E J A:

I. Kirish.

- a. Mavzuning dolzarbligi
- b. Mavzuning o'rganilish tarixi
- v. Ilmiy ishning maqsad va vazifalari
- g. Tadqiqotning tuzilishi

II. Asosiy qism:

I BOB. O.Yoqubov asarlarida xarakter masalsi va psixologik talqin

1 fasl. Ruhiyat tasviri shakllari.

2 fasl. Badiiy-psixologik talqin mahorati

II BOB. Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi, qahramon muammosi va slub qirralari

1 fasl. Badiiy uslub va qaxramon ma'naviyatining aks ettirilishi

2 fasl. Qahramon ruhiyati tasvirining tipologik tahlili.

III. Umumiy xulosalar

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o'zgarishlar, tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda har bir shaxs buyuk o'tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo'llardan borishi talab qilinadi. Bunday oqilona yo'lda, muhtaram Prezidentimiz ta'kidlab ko'rsatganlaridek, «Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgarishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi».¹

O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy iedallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. Yozuvchilar ana shu vazifani ado etishda o'z iste'dodlari ko'lamini, o'z uslublarining rang-barang qirralarini namoyish etadilar.

Yozuvchining uslubi va badiiy mahorati masalasi adabiyotshunoslikda hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Uslub yozuvchining o'ziga xosligini ko'rsatadigan adabiy hodisa bo'lsa, qahramon obrazi badiiy asar mohiyatini oydinlashtirishda muhim estetik ijtimoiy-badiiy ahamiyatga ega masaladir. Demak, individual uslub va qahramon obrazi talqinini tasdiq etish yozuvchining ijtimoiy voqealik haqida, davr kishilari, ularning qatti, faoliyati va uy-kechinmalari to'g'risida o'ziga xos badiiy fikr yuritishi hamda poetik idrok etilgan voqelikni badiiy tahlil qila olishi xususida muayyan nazariy umumlashmalar chiqarish imkonini beradi.

Qahramon xarakteri talqini masalasi yozuvchining individual uslubiga xos muammodir. Badiiy adabiyotda uslub muammosi jahon, jumladan,

¹ Karimov I.A Aqliy va ma'naviy salohiyat-yangi jamiyat poydevori. Ma'naviyat yuksalishi yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998, 49-6et.

o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy-nazariy jihatdan jiddiy tadqiq etilgan. Bu o'rinda M.B.Xranchenko, A.N.Sokolov, G.N.Pospelov, E.Sidorov, P.Palievskiy kabi rus olimlari, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, M.Sultonova, N.Vladimirova, N.Shukurov, H.Boltaboev, T.Rasulov singari o'zbek adabiyotshunoslarining tadqiqotlarini qayd etish o'rinlidir.

Buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoy uslubni ulkan hayotiy tajriba sifatida baholaydi, uni yozuvchining ovozi, adabiy qiyofasini ko'rsatadigan belgi sifatida tushunadi.¹ shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, uslub yozuvchining hayotga, odamlar taqdiriga o'ziga xos idrok bilan yondoshish, mavzu tanlash va voqealikni badiiy aks ettirishda boshqalardan farq qiladigan jihatidir. Yozuvchi uslubini aniqlashda badiiy asarning barcha unsurlari – g'oya, mavzu, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiya, til, janriy belgilar, ijodiy metod kabilar asos qilib olinadi. Demak, yozuvchi ijodiga keng qamrov bilan yondashish bir ijodkorning boshqa bir ijodkordan farqlanib turadigan o'ziga xos mahoratini oydinlashtirishga imkon beradi. V.Belinskiy ta'biri bilan aytganda, «uslub-iste'doddir». Biroq shu o'rinda Byuffonning aforizmga aylanib ketgan «uslub – bu insondir» degan so'zlarini ham eslash joizdir. O'zbek adabiyoti, shu jumladan, nasri bugungi kunda yozuvchilarimizning uslubiy izlanishlari natijasida yangi ijodiy mag'onaga ko'tarilmoqda. Shu sababli xam yangi adabiyotimizning boshlovchilari – Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, Hamza, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor kabi yozuvchilar bilan O.Yoqubov, P.Qodirov, Said Ahmad, Sh.Xolmirzaev, O'tkir Hoshimov kabi bugungi o'zbek nasrining iste'dodli namoyandalari uslubini farqlab, tahlilga kiritish lozim. Fitrat «Adabiyot qoidalari» kitobida mumtoz adabiyot vakillari

¹ Толстой Л.Н. ПСС. Т. 30-М., 1949. – С.112.

bilan o'ziga zamondosh bo'lgan adiblar uslubini farqlab ko'rsatadi.² Ana shu tajriba asosida XX asr boshlarida ijod etgan adiblar uslubi bilan bizga zamondosh bo'lgan yozuvchilar uslubini farqlash lozim. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, yozuvchi O.Yoqubov hozirgi o'zbek narsining rang-barang janrlarida yangi uslubiy izlanishlar olib borayotgan ijodkorlardan biridir. O.Yoqubov qissalari qahramonlarining o'ziga xos ma'naviy olami qanday badiiy talqin etilganligi, yozuvchi asarlarida hayotning qaysi jihatlarini tasvirlashga moyillik mavjudligi hamda qahramonlarining umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'quvchi shuuriga ko'chirishning badiiy mezonlarini oydinlashtirganligini aniqlash masalasi ilmiy ishimizning dolzarbligini belgilashga yordam beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O.Yoqubov ijodi doimo adabiy tanqidchilikning diqqat-e'tiborida bo'lgan. Ayniksa, adibning portret yaratish mahorati, rivoyatlardan foydalanish mahorati, romanlaridagi psixologizmlar masalalari alohida-alohida o'rganilgan. Jumladan, A.Xolmurodovning «O. Yoqubov romanlarida psixologizm» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida uchta masala-ijtimoiy hayot va tarixiy taraqqiyot o'rtasidagi ziddiyatlarning psixologik tahlili, inson va jamiyat munosabatlarining psixologik tahlili, zamon psixologiyasi va uning badiiy haqiqatga aylanishi muammolari «Ulug'bek xazinasi», «Diyonat», «Oq qushlar, oppoq qushlar» romanlari misolida tadqiq etilgan.¹

Dissertant psixologik tahlil muammolarini davr va tarixiy taraqqiyot, inson va jamiyat, zamon va badiiy haqiqat masallari atrofida bahs yuritisa ham, biroq ishda ruhiyat tasviri va uning o'ziga xos masallari, psixologik tasvir va

² Fitrat. Adabiyot qoidalari. T., O'qituvchi, 1995. 32-bet.

¹ Xalmuradov A. Psixologizm v romanax Adyla YAkubova. AKD. T., 1991.

tahlilning shakllari hamda usullari, ularning o'ziga xos g'oyaviy-estetik vazifalari haqida mutlaqo to'xtalmaydi. Bunday holat bizga tarixiy xarakterlar ruhiyati tasvirining shakl va usullari haqida to'xtalishga imkon beradi.

A.S.Ergashevning «Rivoyat va uning badiiy asar syujet kompozitsiya tuzilishdagi poetik o'rni» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida O.Yoqubovning «Ko'hna dunyo» romanidagi rivoyatlarning syujet voqealari rivojidadagi o'rni masalalari xususida bahs yuritiladi,¹ o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ushbu dissertatsiyada psixologik tasvir masalalari kun tartibiga qo'yilmagan.

T.J.Qurbonov esa «O.Yoqubovning portret yaratish mahorati» nomli dissertatsiyasida adibning portret yaratishning psixologik tasvir shakllaridan biri sifatidagi talqinini ko'ramiz.² Darhaqiqat, portret adib ijodidagi ruhiyat tasvirining shakllaridan birini tashkil etadi, ammo bu narsa psixologik tasvirning barcha shakllari haqida xulosa chiqarishga imkon bermaydi.

O.Yoqubov romanlari mavzuidagi eng keyingi tadqiqot Z.A.Rahimovning «O.Yoqubovning «Ko'hna dunyo» romani poetikasi» mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi bo'ldi.³ Ishda roman syujeti, retrospektiv syujet va uning ong oqimi bilan aloqasi, asardagi ruhiyat tasvirining ayrim masalalari haqida fikr yuritilgan. Ushbu tadqiqotda ham ruhiyat tasvirining shakllari, har bir shaklning g'oyaviy-badiiy vazifalari haqida mutlaqo fikr yuritilmaydi.

O.Yoqubov ijodi yuzasidan qilingan yana bir tadqiqot – Sh.B.Isaevaning «O'zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari» deb nomlangan. Mazkur dissertatsiyada o'zbek tarixiy romanlarida xarakterlarni

²Ergashev A.S. Rivoyat va uning asar syujet kompozitsion tuzilishdagi o'rni. NDA. T., 1993 yil.

³urbonov T.J. O.YOqubovning portret yaratish mahorati. NDA. T., 1997 yil.

⁴Rahimov Z.A. O.YOqubovning «Ko'hna dunyo» romani poetikasi. NDA. T., 2000 yil.

to‘laqonli yaratishning etakchi shart bo‘lish ruhiyat tasviri, uning rang-barang usullari muammolariga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yaratilgan tadqiqotlar faqat O.Yoqubov romanlari tahliliga bag‘ishlangan. Biz esa mazkur ilmiy ishimizda yozuvchini qissalari, undagi qahramonlar xarakterlari tahliliga e‘tibor qaratdik. Baholanki, barcha adabiyotshunos olimlar e‘tirof etganlaridek O.Yoqubovni keng jamoatchilikka yozuvchi sifatida tanitgan, individual uslubi shakllanishida muhim bosqich vazifasini o‘tagan asar – «Muqaddas» qissasidir. Xarakter to‘laqonligi, psixologizm va ruhiyat shakllari kabi ijodiy unsurlar eng dastlab ushbu qissada eksperiment tarzida qo‘llanildi va keyingi asarlari, romanlarida muvaffaqiyat bilan davom ettirildi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur malakaviy ishimiz oldiga qo‘yilgan asosiy maqsad O.Yoqubov qissalarini tahlil etish asosida uning o‘ziga xos ijodiy uslubi va badiiy mahoratini ko‘rsatish, shuningdek, qahramon xarakterlari ruhiyatini tasvirlash shakllari va ularning g‘oyaviy-badiiy vazifalarini yoritishdan iborat. Yozuvchining individual uslubini ko‘rsatish uchun qissalardagi qahramon obrazining yaratilishiga alohida ahamiyat berildi. Chunonchi, qissa qahramonlarining ma‘naviy olami, qahramonning milliy sharoit bilan uzviy bog‘liq holat harakatlanishi, uning milliy va umuminsoniy xarakterini yoritish asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lib qoyadi.

Shu bois ko‘zlangan maqsadga erishish uchun tadqiqotimiz oldiga qo‘yilgan vazifalar quyigilardir:

- xarakterlar ruhiyatini tasvirlashning mavjud barcha shakllarini yozuvchi qissalari misolida aniqlash;
- ruhiyat tasvirining barcha shakllariga xos g‘oyaviy-estetik imkoniyatlarni ochib berish;

- ruhiyat tasviri shakllarining qahramon xarakterini to'laqonli yaratishdagi badiiy vazifalarini yoritish;
- xarakterlar ruhiyati tasviri va ong oqimi, shuningdek, polifonik tasvir munosabatlarini yoritish;
- O.Yoqubov asarlarining badiiy uslubiy, til xususiyatlarini kuzatish;
- Hozirgi zamon o'zbek nasri tadqiqotida O.Yoqubovning o'rni, mahorati, uslubi masalalariga oydinlik kiritish.

Yozuvchining individual uslubi va badiiy mahoratini aniqlashda til va badiiy tasvir vositalari muhim hodisa hisoblanadi. Shu sababli ishda O.Yoqubov asarlaridagi g'oyaviy niyat va badiiy shakl, so'zning badiiy tasvirdagi o'rni kabi masalalrni o'rganish ham asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi.

Tadqiqotning tuzilishi. Mazkur malakaviy ishimiz kirish (asoslama) har biri ikkita faslni qamrab olgan ikkita bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

BIRINCHI BOB

O.Yoqubov asarlarida xarakter masalasi va psixologik talqin

Ruhiyat tasviri shakllari. O.Yoqubov yozuvchi sifatida elga tanitgan asar 1961 yili e'lon qilingan «Muqaddas» qissasi bo'ldi. «Tengdoshlar»dan «Muqaddas» qissasiga qadar o'tgan o'n yillik davr go'yoki yozuvchi uchun ijodda o'zligini topish yo'lidagi betinim izlanish, odat tusiga kirgan adabiy qoliplar bilan murosasiz olishi, ma'lum «konfliktsizlik nazoriyasi» asoratini, kitobiylik ta'sirini engib o'tish yo'llari bo'ldi. Muallif «Muqaddas» qissasida hayotning o'zidan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etdi, o'zi qalamga olgan hayotiy hodisalarni ziddiyatlari, chinakam nafosati bilan kitobxonga etkaza oldi. Qissada ikki yoshning hayotdagi ilk mustaqil qadamlari, quvonch va tashvishlari nihoyatda samimiy hikoya qilingan, eng muhimi, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gap kitobxon ko'ngliga hayajon soladigan darajada go'zal bir poetik shaklni topa olgan: qissa qahramoni Sharifjon muayyan bir vaziyatda o'z irodasiga, e'tiqodiga xilof xudbinlik qo'chasiga kiradi, o'zgalar manfaatiga zid bu xatti-harakat avvalo qahramonning o'zi uchun noxushlik olib keladi, eng aziz narsasi-sevgisidan. Sevgilisidan judo bo'ladi. Sharifjonning qing'ir yo'llar bilan sevgilisi Muqaddas o'rniga o'qishga kirib qolishi bir tasodif, ammo shu tasodif zahirida yozuvchi hayotning muayyan haqiqati, ziddiyati, falsafasini ko'radi, ya'ni hayotda ko'pchilik manfaatiga zid har bir hatti-harakat avvalo o'sha odamning shaxsiy manfaatiga ham zid tushishini juda nozik va ta'sirchan ifoda etgan.

«Muqaddas» yozuvchining bosh estetik, axloqiy prinsiplarini shakllantiruvchi asar sifatida ham qimmatlidir. «Muqaddas» so'zi faqat hissa qahramoni nomi bilangina bog'liq bo'lmay, yozuvchi asarda zo'r ehtirom bilan

ilgari surgan insondagi eng aziz, muqaddas tuyg'ular – vijdon, diyonat, imon-e'tiqod, adolat g'oyasini ham o'zida ifodalaydi. «Muqaddas»dan «Diyonat», «Oq qushlar, oppoq qushlar... » va «Adolat manzili»ga qadar adibning e'tiborga sazovor barcha asarlari xuddi shu muammo mevaragida aylanadi. Qisqasi, diyonat, iymon-e'tiqod, ijtimoiy adolat-yozuvchi ijodning bosh ma'naviy muaamosi, uning asosiy estetik prinsipi esa-haqiqatni aytish, hayotni murakkabligi bilan ko'rsatishdir.

Umumjahon badiiy adabiyoti xazinasiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan o'zbek adabiyotida ham hozirgi paytda klassik tasvir hamda modernistik tasvir yo'nalishlari davom etmoqda. XX asrning birinchi choragidayoq realistik nasrning betakror namunalari o'zbek romanchiligini yuksaklikka ko'tardi. Badiiy ijod amaliyoti realistik tasvirning ijtimoiy, ruhiy determinizm dialetikasiga asoslanishi jahonning ilg'or adabiyotlar tajribasida, shuningdek, o'zbek adabiyotida ham eng sinalgan, aniq va betakror tamoyil ekanligini isbotlab berdi. A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va Hamza kabi yirik ijodkorlar bu tamoyil boshida turgan bo'lsalar, keyiroq Oybek, A.Qahhor, G'.G'ulom, M.Shayxzoda kabi ijodkorlar, yana keyinroq esa S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Mirmuhsin kabi hozir esa O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzaev, O.Muxtor, T.Malik, M.Mansurov, T.Murod kabi ko'plab adiblar davom ettirmoqda.

Ularning barchasi realistik tasvirning asosiy belgisi inson xarakterining, hatti-harakatining ijtimoiy-ruhiy determinizm tamoyillari asosida namoyon bo'lishlarini o'z ijodlari misolida isbotlab kelmoqdalar. Shu jihatdan qaralsa, ruhiyat tasviri asosida «inson va voqealik» muammosi qissa janrida o'ziga xos tarzda hal etilmoqda. Hozirgi o'zbek qissachiligida bu narsa «inkorni-inkor», «tasdiqni-tasdiq» prinsiplari asosida ruhiyat tasvirining ikki xil yo'l orqali amalga oshirilayotganligida ko'zga tashlanadi. Bir adib «inkorni-inkor» boshqa

bir yozuvchi esa «tasdiqni-tasdiq» yo‘lidan boradi. O.Yoqubov esa har ikki yo‘lni birlashtirgan holda o‘ziga xos uchinchi yo‘ldan bormoqda. Mana shundan kelib chiqilsa, O.Yoqubovning qator tarixiy romanlaridan tashqari, turli mavzularda yaratilgan qissalari – «Muqaddas», «Qanot juft bo‘ladi», «Bir fel’emon qissasi», «Adolat manzili» kabi asarlarini ijtimoiy-psixologik asarlar sifatida baholash mumkin. Chunki mazkur qissalar ijtimoiy hayot va xarakterlarning chuqur ruhiy tahlili bilan boshqalardan keskin farqlanib turadi.

Ruhiyat tasviri keskin ziddiyatlar asosida namoyon bo‘ladi. Ruhيات tasvirining bu tamoyili uzoq davrlar mobaynida shakllangan klassik tasvirning mohiyatini tashkil etadi. Shu bois L.Ginzburg badiiy psixologizm inson hattiharakati bilan bog‘liqlikda rivojlanadi, biroq bu dinamika ruhiy munosabatlar tasviridagi muayyan stereotiplarni yo‘qotmaydi, balki ularning yangi shakllarini kashf etadi», deb yozganda haqli edi.¹ SHu nuqtai nazardan qaralsa, «Muqaddas» qissasidagi ruhiyat tasvirining asosiy o‘zagi diyonat (adolat) bilan jaholat o‘ratsidagi shafqatsiz, murosasiz kurashni aks ettirishdan iboratligi ayon bo‘ladi. Bu kurash qutblari esa ruhan bir-biriga zid xarakterlar, ular o‘rtasidagi keskin ziddiyatlarga boy to‘qnashuvlar va ruhiy kechinmalardan iborat. Asardagi «Muqaddaslik» esa ona shu ziddiyatli davr, undagi dunyoqarashlar qarama-qarshiliklarning ham ijtimoiy-siyosiy, ham ruhiy murasasizligini ochib berish uchun badiiy vositachilik vazifasini, voqealar dinamikasini ta’minlovchi ramziy vosita vazifasini ham ado etadi.

«Muqaddas» qissasining badiiy yuksakligi shundaki, adib voqealikning faqat ko‘z ilg‘aydigan tashqi tomoninigina emas, balki uning mohiyatiga ham nazar tashlaydi, asar qahramonlarning iztirob va shodliklarini ularning ruhiy olami orqali ochishga intiladi. Bu narsa asarda tasvirlangan davrni, didagi

¹ Гинзбург Л. О психологической прозе. Ст.285

shart-sharoitni butun murakkabligi, tarovati va drammatizmi bilan ishonarli aks ettirishga imkon bergan.

Qissada ob'ektivlik bilan sub'ektivlikning uyg'unlashishi, ruhiyat tasvirining rang-barang vositalar orqali chuqurlashishi va noziklashishi, xarakterlar ruhiyatining ijtimoiy voqelik bilan shartlanganligining badiiy asoslanishi o'zbek realistik qissachiligining XX asri 60-70 yillarda yangi bir pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda bir narsaga alohida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Hozir ko'pgina adabiyotshunos va tanqidchilar omon ruhshunosi Z.Freydning nazariy qarashlari mohiyatiga chuqur kirib bormay ko'r-ko'rona ergashmoqdalar. Albatta, Freydning ruhiy tasvir qarashlari badiiy psixologizm muammolarini hal etishda katta ahamiyatga ega. Lekin uning shunday qarashlari ham borki, biz ular bilan to'la kelisha olmaymiz. Zigmund Freyd ta'limotiga ko'ra «Alibivalentlik (ziddiyatlilik) faktidan kelib chiqib, bizning sezgilarimiz harakati va ziddiyatini anglash mumkin, ambivalentlikning o'zini esa ruhiy dunyoning asosiy va izohlab bo'lmaydigan fenomeni sifatida hisoblash kerak bo'ladi».¹

Ma'lumki, O.Yoqubov idealidagi badiiy psixologizm aniq tarixiy davrdagi odamlar psixologizmi bo'lib, u to'la ijtimoiy-psixologik determinizm tamoyillari asosida qissada aks ettirilgan. Xarakterlar ruhiyatini mana shu tariqa ijtimoiy-hayotiy sabablar bilan badiiy talqin qilish qissadagi ruhiyat tasvirining mumtoz (klassik) nasr yo'nalishidan olib borilganligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Ma'lumki, diyonat, imon-e'tiqod, ijtimoiy adolat huddi muhabbat kabi so'z san'atining qadimiy va boqiy mavzu, muammolaridan. Har bir davr uni

² Фрейд З. Тотем и табу. –М., Прос. 1923. Ст. 165-166.

yangicha qo'yadi, o'zgacha mezonlar bilan baholashni taqozo etadi; qolaversa, har bir adib unga o'zicha yondashadi. Burch, diyonat, adolat muammosi ham xuddi muhabbat kabi adabiyotda birdan-bir maqsad emas. Burch, diyonat davrning katta haqiqatlarini ifodalashga, muhim ijtimoiy masallarni qo'zg'ash, kishilarning ko'ngil darllarini izhor etishga, L.Tolstoy so'zlari bilan aytganda, isnon qalbi haqidagi haqiqatni ochishga qaratilgan taqdirdagina chinakam badiiy qimmatga ega bo'ladi. Afsuski, 50-60 yillari yozilgan qator asarlarda burch, diyonat, adolat biryoqlama, tor, sayoz yoritildi, birdan-bir maqsadga aylanib qoldi; bu borada andozalar paydo bo'la boshladi, burchga sadoqat nuqul nomusi paymol etilgan ayolga yoki fojiaga uchragan odamga mehr qo'yishdan iborat qilib ko'rsatildi. O.Yoqubovning qissalari bu xildagi andozalardan yiroq.

Adib asarlari badiiy noqislikdan asrab, unga o'zgacha estetik tarovat baxsh etgan omillar-buruhiyat tasviri quyuqligi va shakllaridan samarali foydalanilganligidir.

Ruhiyat tahlili (odatda) onglilikni ongsizlikdan, intuatsiyadan, ijtimoiylikni individuallikdan qidirish orqali voqealikning mohiyatini ochishga undaydi. O.Yoqubov ham realist adib sifatida individual ruhiyatni ijtimoiy ruhiyatdan qidirish lozimligini amaliy jihatdan isbotlab berdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xarakterlar ruhiyati tasvirida adib jiddiy janlash, saralash tamoyiliga amal qiladi. Shu bois qissadagi voqealar oqimi ravon, izchil mantiqiy uzviylikka ega; xarakterlar ruhiyatidagi rang-baranglik yaxshi ta'minlangan. Qissada Muqaddasning o'qishga kirish imtixon topshirish manzarasi tasvirlanadi. Biroq mana shu konkret real badiiy zamon asarda ruhiy-badiiy zamon sifatida Muqaddas hayotini to'la qamrab oladi. Bunga adib ruhiyat tasvirining turli-tuman shakllari vositasida erishadi. Kuzatishlarimiz

O.Yoqubov qissalarida ruhiyat tasvirining quyidagi shakllari qo'llanilganligini ko'rsatadi:

Eslash. Ushbu ruhiy holat insonga xos bo'lib, uning asosida xotira deb atalmish hodisa yotadi. Xotira o'tmishda bo'lib o'tgan va inson ongida mustahkam o'rinishib olgan, hayot taqozasi bilan uning shuurida qaytadan jomlanuvchi voqea-hodisa yoki kechinmadan iborat. Xotira insonning o'tmishi, hozirgi va kelajagini bog'lovchi ruhiy ko'prik bo'lib, uning bilish jarayonida ahamiyati benihoya kattadir.

O.Yoqubov qahramonlar xarakterini yaratishda mantiq qonuniyatlariga, ayniqsa, ularning didi, tab'i, temperamenti, hatti-harakati, nutqi kabilarga jiddiy yondoshadi.

Insondagi eslash xususiyati barcha uchun xos, lekin aqli raso, komil shaxslarda bu ruhiy jarayon kuchli, mantiqli va izchil kechadi. Insondagi eslash turli vaziyatlarda turlicha kechadi. Inson beixtiyor, masrur damlarida baxtsiz va mahzun damlarini eslaydi. Ba'zan esa u aksincha og'ir damlarida xushnud va quvnoq damlarini eslaydi. Inson ruhiyatidagi mana shunday tabiiy ruhiy holatdan O.Yoqubov juda o'rinli foydalanadi. (Misol – «eslash»ga).

O'ylash, mulohaza yuritish. Inson ruhiyati o'ta murakkab va rang-barangdir. Shu bois uning namoyon bo'lmish shakllari ham turlichadir. O.Yoqubov qissalarida qahramonlarning hatti-harakatlarini, faoliyatlarini ham ijtimoiy va ruhiy jihatdan asoslash maqsadida o'ylash, mulohaza yuritish holatlarigi katta e'tibor qaratadi. Chunki asar qahramonlarining o'y-fikr yuritishi uning o'zligini, inson sifatidagi mohiyatini kitobxonga aniqlab berishga imkon beradi. Umuman olganda, mulohaza yuritish, o'ylash jixologik tasvirning eng murakkab ayni zamonda,eng samarador usuli hisoblanadi. (Misol).

Ong oqimi. Ong oqimi o'y-fikr yuritishdan iborat, biroq uning aynan o'zi emas. Ong oqimi harakat shuurida kechayotgan o'y-fikrlar, kechinmalar bir-birini to'ldirgan holda davom etadi. Bunda tahlikali vaziyatlarda xarakterlar ongida kechayotgan o'ylar, fikrlar oqimi butun murakkabligi, ziddiyati va qizg'inligi bilan ifodalanadi.

«Adolat manzili» romanidagi Suyun burgut, o'g'li Lochin xarakterlarining voqealar dramatzimi avjiga chiqqan onlaridagi ruhiy kechinmalari bevosita ong oqimi shaklida tasvirlangan.

Ichki monolog. Inson o'zi bilan o'zi yolg'iz qolganda ruhiyatining eng kuchli va eng ojiz jihatlarini bujun murakkabligi bilan anglab etadi. Xarakterlarning kechinmalarini uchinchi shaxs tilidan bayon etish, muallif bayoni bilan personaj bayonining birlashib ketishi asarga kuchli ruhiy zamin, falsafiy yo'nalish beradi, holatning badiiy sharqi vazifasini o'taydi.

Ruhiyat tasvirining ichki monolog shakli epik sharoit va xarakterlar hatti-harakati, holati o'rtasidagi uyg'unlik to'la ta'minlangan o'rinlarda qo'llangandagina tabiiy chiqadi, kitobxon ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O.Yoqubov ana shu tasvir qonuniyatiga to'la amal qiladi va ichki monologni o'rinli istifoda etadi. Adib qissalaridagi ko'pgina qahramonlar xarakterlari ruhiyatining tasvirida ichki monolog shakliga murojaat etadi. (Miosl)

Tush ko'rish. «Adolat manzili» romanida adib tush ko'rish motividan xarakterlarning ruhiy holatlarini tasvirlashda foydalanadi. Romanda bir necha o'rinda tush motivini qo'llaydi va ular orqali o'quvchiga yovuzlik, ziyon-zahmat, dushman tahdidi kabi voqea-hodisalar haqida oldindan bashorat qiladi. Tushning qissa syujeti rivojiga ta'siri, tarixiy voqealar oqimiga hamohangligi ijodkorning qahramon hayoti bilan, hayotiy material bilan yaxshi tanish ekanligidan dalolat beradi. Demak, ijodkor uchun asar voqealarining tarixiy

voqealik oqimiga, etakchi personajlar qismatining prototiplar qismatiga mosligi aniq bo'lsa, tush motivini faqat hismat darakchisi vazifasida qo'llash aniq maqsadga aylanadi. O.Yoqubov «Adolat manzili» da xuddi mana shu badiiy mantiq talabiga amal qilgan holda tush motivini qo'llaydi.

Muloqot (dialog) Muloqot jarayoni o'ta sinkretik tabiatga ega bo'lib, unda xarakterlarning o'zlarini tutishlari, holati va kayfiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli adib bunday hayotiy holat, vaziyatda xarakterlarning faoliyatini tabiiy tasvirlashga intiladi. Ayniqsa, hibsga olingan Suyun burgut bilan qaysidir ma'noda maqsadiga erishgan Mansur mesh o'rtasidagi mulohat ishda keng tahlil etilgan. Shu o'rinda nozik bir holat haqida to'xtalishni lozim topamiz.

Ruhiyat tovlanishlarini ochishning ob'ektiv yo'li hamma vaqt muallif bayoni vositasida olib boriladi. Bunday bayon goh xarakterlarning tashqi qiyofalari yoki hatti-harakatlari tasviriga ko'chsa, goh ularning nutqlarini yoxud ichki tuyg'ularini ilg'ashga ko'chadi.

Xarakter ruhiyati, nutqi va harakatidagi g'alayonni to'g'ri, tabiiy uyg'unlikda tasvirlanishi badiiy asarning hayotiyligini ta'minlaydi. Muloqot jarayonida xarakterlar ruhiyatini ochishda O.Yoqubov katta tajriba orttirgan. Shu bois uning qahramonlari o'rtasidagi barcha muloqotlar kishiga qattiq ta'sir qiladi, muloqot ishtirokchilarining ruhiyati aniq sezilib turadi. Bunga adib so'z, xatti-harakat va holat tasvirini birgalikda, uyg'unlikda olib borish, aniqrog'i, ruhiyat tasvirining sintetik usulini qo'llash orqali erishadi.

Umuman olganda, qissalarda xarakterlar ruhiyatini ochishda personajlar o'rtasida muloqotlar juda ko'p foydalanilgan. Bu muloqotlar asarning g'oyaviy yo'nalishi, ijodkorning maqsadi, asarning konsepsiyasini aniqlab berishdan

tashqari unga kuchli ta'sirchanlik, keskin drammatizm va hayotiylik bag'ishlagan.

Tabiat tasviri. Xarakterlar ruhiyati bilan tabiat manzaralari va joylar tasvirining yonma-yon olib borish adabiyotda ko'p istifoda etiladigan usul bo'lib, bu usul asardagi tabiat manzaralari va joylar tasviri qahramon ruhiyatini ochishga, qahramon kayfiyati esa joy yoki tabiat manzaralari tasvirini qabul qilishga xizmat qiladi.

Ruhiyat va tabiat uyg'unligi ijodkor tomonidan o'ylab topilgan hodisa emas, balki ob'ektiv amal qiluvchi qonuniyatdir. Mana shuning uchun adib qissalarida ruhiyat va tabiat tasviri uyg'unligi qonuniyatiga amal qiladi.

«Adolat manzili» romani o'zbek xalqiga nisbatan qilingan tajovuzlar, adolat va buhton o'rtasidagi kurashlarda berilgan qurbonlar haqida hikoya qilar ekan, asar qahramonlari qalbida kechgan turli-tuman hissiy jarayonlar, kayfiyat va holatlar asarning hayotiyligini ta'minlashga xizmat qilgan. Shu bois romanda xarakterlar ruhiyatini ochishning rang-barang usul va vositalarini qo'llagan.

Masalan, Suyun burgutning dafn marosimida marhum haqida odatdan savolga el «Yaxshi odam edi, mard yigit edi Suyun Burgut», deya hayqiradi. «Bu hayqiriqdan Marjontov ham yig'ladi-yov, Marjontov ham silkindi-yov!...»-deb yozadi yozuvchi. Marjontov – tabiatning bir oddiy perdmoti, lekin asarda ona kabi yig'lashi, farzandiga qayg'urib «silkinishi» - tabiat tasvirining, ruhiyatini ochishda muhim vazifa bajargan.

Badiiy-psixologik talqin mahorati. «Adabiyotshunoslik va ayniqsa tanqidchilikda ba'zan uslub deya turib turli xil badiiy tasvir usullari hamda adabiy priyomlar haqida fikr yuritilgan holatlarga duch kelib qolinadi» - deb yozgan edi I.Sulton «Adabiyot nazariyasi» darsligida. Taniqli adabiyotshunos

olim yozuvchi uslubi va badiiy tasvir usullari istilohlarini alohida ob'ekt sifatida, birini-ikkinchisidan ajratib izohlashga harakat qiladi. Bu nuqtai nazar bizningcha muammolidir. Aslida uslubni o'rganmoqchi bo'lgan olimlar yozuvchi asarlaridagi badiiy tasvir usullarini tadqiq etadi. Adabiy priyomlar va badiiy tasvir usullari individualligi keng ma'noda uslubni yuzaga keltiruvchi elementlardir.

O.Yoqubov ijodiy uslubini tashkil etuvchi elementlardan biri badiiy-psixologik talqin va portret yaratish mahoratini alohida ta'kidlash zarur. Chunki qahramon xarakterini ham ichki (psixologik talqin) ham tashqi (portret) tomonidan badiiy tadqiq etish imkoni yaratiladi.

Har bir yangi asari bilan ijodiy parvoz ufqlarini kengaytirib borgan O.Yoqubov o'z asarlarida portret yaratishning yangi imkoniyatlarini izlab topdi, kashf etdi. Qahramonlarning bir-biriga o'z-o'ziga qiyoslab chizilgan ajoyib portret namunalarini yaratdi. Ularning tashqi qiyofasi bilan chiki dunyosini uyg'un tasvirlash birga tashqi ko'rinish-zohiriy olam hamma vaqt ham insonning ma'naviy olamiga mos kelavermasligini isbotlovchi xarakterli qiyofalarni kitobxon ko'z o'ngida gavdalantira oldi.

Ayniqsa, O.Yoqubovning salbiy qahramon portretini yaratishdagi o'ziga xosligi diqqatga sazovordir. Agar adib uslubini A.Qodiriyning portret yaratish uslubi bilan solishtirib ko'rsak, bu o'ziga xoslik yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Salbiy qahramonlar portretning tipik namunalarini yaratgan A.Qodiriy o'z qahramonlarining qiyofasini mumtoz adabiyotimiz an'alaridan kelib chiqib chizgan. Ya'ni, yaxshi xulqli ijobiy qahramonlar-go'zal, aksincha salbiy qahramonlar xunuk qilib tasvirlangan. Misol tariqasida Homid, Sodiq, Jannat qiyofalarini eslash kifoyadir.

O.Yoqubov qalamiga mansub asarlardagi qaxramonlar portretini ko'zdan kechirganda boshqacha holni kuzatamiz. Yozuvchi har bir xarakter qiyofasini ochishda realistik yo'l tutadi, ya'ni qanday obraz (ijobiy, salbiy) bo'lishdan qat'iy nazar, uning tasviriga xolisona yondashadi, asl qiyofasini hatti-harakatida, faoliyatida ko'rsatadi».¹ Shuni ham ta'kidlash kerakki adib qahramonlari qiyofasini real tasvirlar ekan, o'z munosabtni yashiradi, iloji boricha, ochiq ifodalashdan qochadi. Hatto o'quvchi nafratiga loyiq qahramonlarni ham kelishgan, chiroyli, qomatdor qilib tasvirleydi. Masalan, «Izlayman» qissasining qahramonlaridan biri kapitan Nogaev juda kelishgan, tartibli, xatto Gobi sahrosi, Xingan tog'larida yurganda ham etigiga gard yuqtirmaydi. Ammo u qanchalik orasta qiyinmasin, qanchalik xush bichim va kelishgan bo'lmasin, botiniy olami shunchalik fasodga to'la, kishining nafratiga duchor inson obrazdir.

Yozuvchi «Billur qandillar» qissasidagi Begimqul portretida ham tashqi libosga, zahiriy ko'rinishga ko'proq e'tibor qiladi. Bu bilan undagi boylikka, yaltiroq hayotga qullik psixologiyasini ochib berishga harakat qilgan. «Hikmatillo Begimqulni bir tanib, bir tanimay qoldi. Uning egnidagi qammat baho kulrang kastyumi emas, oyog'idagi tuflisi, ko'ylagi va galstugigacha qandaydir yaltillab turar, odatdagi patak sochlari silliq taralgan, o'ziyam raygazning xodimi emas, sahnaga chiqishga hozirlik ko'rgan mashhur artistga o'xshar edi».²

«Billur qandillar» qissasi misolida yaltiragan liboslar, shohona liboslar, ko'zni o'ynatuvchi jihozlar, dang'illama uy, boylik orqasidan quvlagan

¹ Karimov H. Ijod va iste'dod // Adabiy portretlar. T., 1985. 135-bet.

² O.Yoqubov. Saylanma. 3 jildlik. 3-jild. T., 1987, 421-bet.

insonning ma'naviyati tanazzulga uchrashini yozuvchi Begimqulning zohiriy ham botiniy olami tasviri orqali ishonarli bir tarzda ko'rsata olgan.

O.Yoqubov nafaqat hikoya va qissalarida, balki romanlarida ham o'z portret yaratish uslubida chekinmadi. Adibning ilk romani «Er boshiga ish tushsa» asaridagi Ertoev, «Diyonat»dagi Jamol Bo'riboev portretlari fikrimizga yaqqol dalil bo'la oladi. Bo'riboev urush yillarida qon kechib jang qilayotgan yigitlarning qayliqlarini yo'ldan urish, butun xalq ikki frontda jon olib jon berib kurashayotgan bir paytda o'z rohatini ko'zlab yurgan odam. Lekin yozuvchi uning qiyofasini holis turib tasvirlaydi, unga bo'lgan munosabatini ochiq-ravshan oshkor etmaydi. «Ota qo'zining hikoyasi esida turgan Shukurov o'shanda turqi sovuq, kalondimog' bir odamni ko'raman deb o'ylagandi. Buning o'rniga sal qorin sola boshlagan bo'lsa ham xanuz bo'y-basti kelishgan, vazlingina bir odamni ko'rdi. Agar katta-katta ko'kimtir ko'zlari sal chaqchaygani bo'lmasa bu oppoq, burni uzun odamni chindan ham xushsurat deyish mumkin edi».³

«Oq qushlar, oppoq qushlar» romanining qahramonlari – Muzaffar Farmonov ham, o'g'li Fotiq Muzaffarov ham o'zlarining palid ishlari bilan kitobxon nafratiga duchor kishilar obrazidir. Ammo yozuvchi ularning portretini holis turib tasvirlaydi. Muzaffar Farmonovning kiyinishi ham o'z tabiatiga mos: ko'rinishidan meshchanligi, boylikka, qimmatbaho narsalarga o'chligi bilinib turadi. Fotiq Muzaffarov nafaqat otasining qora ishlarini takrorlaydi, balki tashqi ko'rinishi jihatidan ham unga o'xshab ketadi: «xushqad, xushsurat, uning vujudidan kuch-g'ayrat va shiddat yog'ilib turadi». Bundan tashqari, romandagi «odatdagiday bashang kiyinib yuradigan Klara Jamolovna», «qaddi-qomati kelishgan, bitta ham oq tushmagan qalin soyalari

³ O.Yoqubov. Diyonat. T., 1979, 143-bet.

hurpaygan Mardon Zokirov» kabi qator obrazlarning ma'naviy olami bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi ziddiyat insonning murakkab xarakterli hayotini keng miqiyosda ochib ko'rsatishga xizmat qilgan.

Adibning tarixiy mavzudagi asarlarini ko'zdan kechirganda ham shu holatni kuzatish mumkin. Agar O.Yoqubov ijobiy qahramonlarni ko'pincha, ichidan yoritishga, ularning qalbiga kirib borishga harakat qilsa, aksincha salbiy qahramonlarni aksariyat tashqi ko'rinishiga asoslanib tasvirlashga intilgan. Ayniqsa, asardagi ruhoniylar, zodagonlar obrazi ularning tashqi libosi yoki ayrim xarakterli detallar fonida ochiladi. Xoja Salohiddin zargarning fil tishidan yasalgan oltin bandli asosi, kimxobuzarga burxongan liboslari, Shayx Nizomiddin Xomushning simobiy dastori, qorday oppoq ridosi va boshqalar shular jumlasidandir. Shunisi xarakterliki, adib salbiy qahramonlarni qoraga chaplab ko'rsatmaydi, aksincha ularni kelishgan, xushsurat, kishini o'ziga rom qiladigan odamlar sifatida ob'ektiv tasvirlaydi.

Yozuvchi ularning qora qilishlarini qalamga olar ekan, bu xushsurat, kelishgan odamlarning qilmishi bilan qiyofasi o'rtasidagi nomutanosiblikni ilg'ash qiyin emas. Agar O.Yoqubov «Ko'hna dunyo» romanida oddiy xalq vakillari, ijobiy qahramonlar portretini unchalik batafsil chizmasdan, bir-ikki xarakterli belgilar orqali yaratgan bo'lsa, aksincha salbiy qahramonlar portretini ancha mukammal tasvirlaydi. Ularning tashqi ko'rinishi bilan ichki dunyosini dialektik birlikda tasvirlab, qator to'laqonli xarakterlar yaratishga erishgan. Xulosa qilib aytganda, O.Yoqubov ijobiy qahramonlarning salbiy xislatlarini ham, salbiy qahramonlarning ijobiy fazilatlarini ham hech bir qo'shib-chatmay, xolis tasvirlaydi. Ularga bo'lgan o'z munosabatini (simpatiyasi yoki antipatiyasi) ochiq ravshon oshkor etmaydi. Balki o'z munosabatini qahramonlari portretining qatiga ustalik bilan «yashiradi».

II BOB

Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi, qahramon muammosi va uslub qirralari

Badiiy uslub va qahramon ma'naviyatining aks ettirilishi. Badiiy adabiyotda hayot go'zalliklari, insonning ijtimoiy faoliyati va ma'naviy olami ma'lum bir estetik kategoriyalar orqali o'z ifodasini topadi. Badiiy adabiyotning estetik kategoriyalari deyilganda, poetik idrok etilgan hayotiy voqealikni tasvirlash yo'llari, ya'ni badiiyat qonuniyatlari silsilasi nazarda tutiladi. Taniqli adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonovning fikriga «Estetik kategoriya bu hayot go'zalliklarining adabiyot va san'atda in'ikos ko'rinishlarining tasvir yo'llaridir».¹

O'zbek nasri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan A.Qodriy, G'.G'ulom, A.Qahhor, S.Ahmad, SH.Xolmirzaev, O.Yoqubov, P.Qodirov, O'.Hoshimov va boshqalarning asarlarida serqirra ma'naviy olam sohibi va o'ziga xos taqdir egasi bo'lgan kishilarning rang-barang obrazlari yaratilgan. Yozuvchilarning qator asarlarida inson hayotining eng shiddatli voqealari chigal taqdiralar-u fojeali kechmishlari, qahramonona voqealarga boy yulduzli onlari o'zining ta'sirchan ifodasini topgan. Umuman, o'zbek nasrchiligida yangi qahramonlar bilan adabiyotimizni boyitgan asarlar talaygina. Qissachilikda yangi qahramonlarning tug'ilishi esa o'z navbatida yangi ifoda vositalari, o'ziga xos uslubni talab etadi. Shuningdek, qissachilikda yangi qahramon obrazini yaratish ko'p jihatdan badiiyat-obrazlar tizimi, syujet, kompozitsiya, til va uslub kabi vositalar sohasida izlanishni ham taqozo qiladi. Yozuvchi inson taqdiridagi nozik murakkab holatlarni hamda shu inson sajiyasidagi muhim xislatlarni,

¹ Qo'shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik. II jild. T., 1983. 137-bet.

uning ma'naviy olamini tasvirlashga harakat qilsa-yu, ammo yangi ifoda vositalarni tojishga erisha olmasa, u o'zining g'oyaviy niyatini to'la ifodalay olmaydi.

O.Yoqubov ijodida «Muqaddas» (1961) qissasida yoq yozuvchi, uslubi o'z ifodasini topgan edi. O.Yoqubov qissalaridagi syujet o'zaklarining o'zaro yaqinlikdan kelib chiqib, yozuvchi faqat bir xil qahramonlar taqdirini tasvirlaydi va bir xil mazmundagi voqealarni qalamga oladi, degan fikrni uyg'otmasligi kerak. Zero, uning qissalarida tasvirlangan qahramonlar bir mavzu atrofida harakat qilsalar-da, ularning jamiyatga, tevarak-atrofdagi odamlarga bo'lgan munosabatlarida, o'y-kechinmalarida, ma'naviy dunyosida bir-birini takrorlamaslik darajasidagi rang-baranglik mavjuddir. Bu, yozuvchining badiiy ijodda poetik so'zni his qilish darajasi nihoyatda teranligini ko'rsatadi. Qahramon ma'naviy dunyosining shakllanishida uning ijtimoiy hayotdagi mavqei va adamlarning o'zaro munosabati muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday hayotiy lavhalar tasviri qissada badiiy haqiqat darajasiga ko'tarilgan. Yozuvchi ana shu badiiy haqiqatni qahramonlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, ruhiy kechinmalari, do'stlikni tushunish va his eta olish iqtidorini tasvirlash orqali ochib beradi.

«Bir fel'eton qissasi» asarini (1963) tahlil etib ko'raylik. Jurnalist Uchqunjon yaxshi surishtirmay shoshma-shosharlik bilan bir vaqtlar mehnatda dong taratgan, keyinchalik esa engil hayot kechirish yo'liga kirib ketgan ayol haqida fel'eton yozib yuborgan. Uchqunjon katta hatoga yo'l qo'yganligini sezib qoladi, vijdon azobiga tushadi, asli pokiza yigit yuz bergan xatoni tuzatish uchun qalb da'vati bilan kurashga o'tlanadi. Xuddi o'sha kurash jarayonida, bir tomondan, qahramonning vijdon, diyonat to'yg'usining kuchi namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchini hayajonga solgan hayotiy

chigalliklarning ildizi ochila boradi. Yozuvchi dongdor ayol Saltanatni halokatga olib kelgan omillarni badiiy tahlil etib boradi. Ma'lum bo'ladiki, Saltanatni hissizlik, adolatsizlik, e'tiborsizlik shu kuylarga solgan, brigadir Mo'min akaning sovuqqonligi, eri Qulohmadning loqaydligi tufayli hayotdan, mehnatdan ko'ngli holgan. Shunisi xarakterliki, Saltanatning ziddi bo'lmish brigadir odatdan eskilikka yopishib olgan johil, mansabparastlardan emas, aksincha u qo'ydek yuvish, mo'min-qobil odam; Qulahmad ham feodal xotin do'iposlaydigan zo'ravon erlar toifasidan emas, aksincha, yumshoqqina yigit. Biroq har ikkovi ham turli ko'rinishda bo'lsa da, bir kasalga-itoatkorlik, loqaydlik, hissizlik illatiga muhtalo.

Ular uchun ish, reja, mansab-martaba, obro'y bo'lsa kifoya, odamlarning hohish-istaklari bilan ishlari yo'q. Odamga hayot ato etuvchi ayol zotiga shunchaki bir ishchi kuchi, ijrochi deb qaraydilar, ayol mehnatini engillashtirish, qo'lidan ketmonini olishni xayoliga ham keltirmaydilar. Saltanatning mehnatdan qo'l siltab engil hayot ko'chasiga kirishi shu xil loqaydlikka qarshi shu xil loqaydlikka qarshi o'ziga xos bir isyon edi. Loqaydlik, hissizlik, adolatsizlik ko'ngilsiz oqibatlari jihatidan shafqatsizlikning o'zgacha bir ko'rinishlaridirki qahramonning unga qarshi isyoni qalbimizni hayajonga soladi. Bu asar yozuvchining hayot sari qo'ygan dadil qadami bo'ldi. 1968 yilda yaratilgan «Qanot juft bo'ladi» qissasi ham qahramonlari ruhiyati talqini jihatidan ajralib turadi. Bu qissa ham yozuvchi ijodiy takomilida muhim o'rin tutadi. Qissa qahramonlari Akram, Sayyora, SHavkatjon, Nilufar, Murodjon, Sodiq – barchasi odatdagidek, burchga munosabat, imon-e'tiqod, diyonat, adolat tuygusi fonida tahlil etila boradi. Shu bahonada endi bir emas, bir necha ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolarni ko'taradi. Muallif asarda kitobxon bilan qizg'in bahsga kirishadi. 60-yillar

kishilari ma'naviy hayotida nimalar sodir bo'layapti, qaysi odatlar maqbul, qaysilari nomaqbul, xalqning ma'naviy yuksalishiga nimalar to'sqinlik qilyapti – yozuvchi shu savollarga javob axtaradi.

O.Yoqubov «Muqaddas»dan boshlab deyarli har bir asarida biror muhim masalani ko'tarish bilan barobar, qalamga olingan mojarolarning hayotiy ildizini, sabablarini ochishga intiladi. Boshqacha aytganda, yozuvchi etuk realizmga xos analitik tasvir yo'lidan boradi. Garchi zaifroq bo'lsa-da, «Muqaddas»da Sharifjonni qing'ir yo'lga boshlagan omillar-oilaviy muhit ta'siri ta'kidlab o'tilgan. «Bir fel'eton qissasi»da bu xususiyat xiyla chuqurlashadi. «Qanot juft bo'ladi» qissasida esa yuqori bosqichga ko'tariladi. Asarning etakchi personajlari – Akramning ikkilanishlari iztiroblari, Sayyoraning adashishi, boshqa personajlar taqdiri va xarakteridagi kuchli va ojiz jihatlar faqat «tug'ma» xususiyatlar samarasi emas, balki ayni paytda real vaziyat, muhit mahsuli sifatida murakkab hayot bilan, fan-texnika inqilobi, davr sur'ati bilan bog'liq holda tahlil etiladi.

Analitik tasvirga moyillik adib ijodida etuk realizmga xos yana bir fazilatning shaklanishiga olib keldi – uning qahramonlari murakkab tabiatli shaxslarga aylana boshladi. Shaxsga xilma-xil tomondan yondashish, hodisaning ham musbat, ham manfiy tomonlarini yodda tutishga intilish, odamni osongina «yaxshi» va «yomon»ga, «ijobiy» yoki «salbiy» qahramonga chiqarib qo'yishdan o'zini tiyish, inson qalbini his etgan holda qalam tebratish- mana shu fazilatlar «Qanot juft bo'ladi» asarida yaqqol ko'rinadi. Akram, Sayyora, Amaki, hattoki johil bo'lib ko'ringan Sodiqni ham odatdan «salbiy» yoki «ijobiy»lik mezoni bilan o'lchab bo'lmaydi; urf-odatlar, taomillar talqinida hali shu hol-yangicha va eskicha odatlar o'z ichki ziddiyatlari, musbat va manfiy tomonlari bilan dialektik tarzda ko'rsatilgan.

Yozuvchi qissasida shakllangan badiiy fazilatlar, realistik prinsiplar uning romanlarida, xususan «Diyonat», «Ulug‘bek xazinasi» asarlarida chuqurlashib, betakror tamoyil tusini oldi.

O.Yoqubov qissalari qahramonlari ma’naviy olamining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular xarakteridagi o‘zbekona jihatlar umuminsoniy qadriyatlar dengizida garq bo‘lib ketmaydi. Qahramonlar ma’naviy olamiga alohida ma’no va joziba bag‘ishlagan shu jihatlar bugungi kunimiz, davrimiz hodisalari bilan, ya’ni zamondoshlarimizning turmush tarzi, quvonchutashvishlari, qolaversa, shakllanayotgan yangi hayot mezonlari bilan bevosita bog‘liqdir.

San’at o‘zining eng muqaddas narsasiga-badiiy obrazlar orqali aks ettirishi lozim bo‘lgan «oliy haqiqatiga» erishmog‘i uchun ijodkorlik faoliyati uchinchi-eng etuk bosqichga ko‘tarila olishi kerak. Uchinchi bosqichda asosiy hukmronlik uslubga o‘tadi. Manera esa o‘z yo‘nalishida unga bo‘ysunadi va faqat u talab etgan me‘yor doirasidagina yuzaga chiqa oladi.

Yozuvchi bu ishga qanchalik sofdallik, samimiylilik, insof va qunt bilan yondosha olsa, ko‘rgan va eshitgan narsalarini bosiqlik bilan o‘zlashtira olsa tasavvurida shoshmasdan gavgdalandirsa, bunda o‘ylab ko‘rishni, ayrim perdmeklarni umumiy tushunchalarga bo‘ysundirishni, binobarin ko‘proq chog‘ishtirish, taqqoslash, o‘xshashliklarni nomutanosibliklardan ajratib olishni ham durust odat qilgan bo‘lsa, intilishlarida san’atning eng muqaddas narsasiga shunchali yaqin kelaveradi.

«Uslub, - deb yozadi I.V. Gyote, - idrokning eng tub qatlamlarida, narsalarga xos mavjudlikning o‘zida qaror topadi».¹

¹ Гёте И.В. Соч. Т.Х. М., 1937. С.401.

«Hamma buyuk talantlar singari, - deb yozadi V.G.Belinskiy, - janob Lermontov «slog» deb ataladigan narsani oliy darajada egallagan... slog-bu aslo grammatik jixatdan to'g'ri, silmiq va tartib bilan yozish emas. Slog deganda biz...yozuvchining shakl bilan mazmunga quyma bir holat bag'ishlay olish qobiliyatini va shu bilan birga hamma-hamma narsaga o'z shaxsi, o'z ruhining takrorlanmas, original muhrini tushirib o'ta olish xususiyatini, ya'ni unga tabiat tomonidan in'om etilgan xususiyatni nazarda tutamiz».²

Milliylik va umuminsoniylik badiiy adabiyotning muhim talablaridan hisoblanadi. Jahon adabiyotining eng nodir asarlari ana shu ikki hodisani umumlashtirish, mushtarak holatda tasvirlay olish xususiyati bilan qadr topgandir. Zotan. Adabiy asarda milliylik umuminsoniylik bilan uzviy aloqada, birlikda namoyon bo'lgandagina katta badiiy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon jahon adabiyotida yaratilgan milliy xarakterlarni umuminsoniy qadriyatlar sohibi sifatida tasvirlash etakchi tamoyillarga aylangan.

Tabiat va inson tasviri badiiy adabiyotda milliy, ayni paytda, umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan hodisadir. Tabiat muhofazasi mavzusida yaratilgan badiiy asarlardagi qahramonlar qaysi millatga mansub bo'lmasin, ularning ichki kechinmalari va orzu-intilishlarida umuminsoniy tuyg'ular o'z ifodasini topishi zarur. SHu jixatdan qaraganda, Muqaddas («Muqaddas»), Hikmatullo («Billur qandillar»), Akram («Qanot juft bo'ladi»), Suyun burgut («Adolat manzili») va boshqa qahramonlar o'zlarining milliy, ayni paytda umuminsoniy qiyofalariga ega.

Ma'lumki, ijodkor asarda o'z oldiga muayyan badiiy niyatni yoritishni maqsad qilib qo'yadi. Badiiy niyat qanchalik ulug'vor va ezgu bo'lsa, uning ijrosi ham shunchalik yuksak bo'lishi lozim. SHuningdek, badiiy shakl adabiy

² Белинский В.Г. ПСС. В. 13-ти. Т. Т. 5. М., 1953. С.424.

asarning muhim sharti bo'lib, obrazlar tizimi, kompozitsiya va boshqa badiiy nutq kabi komponentlarning ishlanishiga bog'liq. Shu ma'noda asarning janri, xarakterlar tasviri, konflikt va peyzaj kabi vositalar ham asar shaklining mukammal bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Demak, niyat tug'ilishidan boshlab asar tugaguncha bo'lgan jarayon badiiy shaklning shakllanish jarayonidir. Ishda O.Yoqubov ijodiy laboratoriyasini kuzatish natijasida yozuvchi uslubining shakllanish jarayoni atroflicha tahlil qilingan.

O.Yoqubov o'ziga xos badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilik, biryoqlamalik va bayonchilikdan qochadi. So'zga hasis bo'lsa-da, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin etkazishga erishadi. Ba'zan uning ayrim asarlari tugallanmagandek, fikrlar nihoyalanmagandek taassurot uyg'otadi. Adib odatda qahramonlar portretini favqulodda quyuq chizib, barcha diqqat e'tiborni xarakter yaratishga qaratadi. Bu holatni adibning barcha asarlarida uchratish mumkin.

O.Yoqubov qissalari o'ziga xos ifoda usullari, tasvir ohangi, ritmikasi bilan ham e'tiborlidir. Yozuvchi fikrini qisqa va lo'nda tasvirlashga odatlangan.

Qahramon ruhiyati tasvirining tipologik tahlili. O.Yoqubov 1988-1991 yillar davomida «Adolat manzili» asari ustida ishladi. Asar 1994 yili «sharq yulduzi» jurnalida bosildi. O'sha yili turk tiliga tarjima etilib, alohida kitob holida chiqdi. «Adolat manzili» qalamga olingan mavzu-muammolari jihatidan «Diyonat» va «Oq qushlar, oppoq qushlar»da davom ettirilgan ma'naviy-ijtimoiy jarayonlar, muammolar badiiy tahlilining o'ziga xos intihosi. Bu uch asar garchi har biri mustaqil, o'ziga tugal asar sanalsa-da, o'ziga xos trilogiya sifatida xalqimiz tarixining muayyan bosqichi, aniqrog'i, qizil

imperiyaning yurtimizda ting, osoyishta kunlarda ichdan emirilishi, ma'naviy inqirozga, xalokatga yuz tutish davri haqida muayyan tasavvur beradi.

«Adolat manzili» asarining voqeasi oddiy-unda «o'zbek ishi» deb atalgan ko'ngilsiz hodisaning ayanchli bir ko'rinishi hakida hikoya qilinadi: yaqindagina sovxoz direktorligiga ko'tarilgan halol, g'ayratli, shijoatkor, tadbirkor igit chaquv orqali mansabdorga «pora bergan»likda ayblanib qamaladi, markazdan kelgan «desantchi»larning tahdidu bedodliklari tufayli qamoqxonada o'zini o'ldiradi. Asardagi barcha gap-so'zlar, voqealar mana shu ko'rgulikka muhtalo bo'lgan shaxs-bosh qahramon Suyun burgut tevaragida aylanadi, yozuvchi bu mudhish hodisaga munosabatda bir talay personajlarning ma'naviy qiyofasini gavdalantiradi, o'zining hayot, uning chigal jumboqlari xususidagi o'y-mushohadalarini izhor etadi.

Suyun burgut avvalo qahramonona xarakteri bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda adabiyotimizda totalitar siyosat oqibati o'laroq, hayot girdobiga tushib qolgan fojiiy shaxslar obrazi ko'plab qalamga olindi, ularning aksariyati asosan jabrdiydalar sifatida talqin etildi. Suyuk burgut ham jabrdiyda shaxs, shu bilan barobar, u mardona, davyurak, kurashchan siymo. Bu yigit boshiga tushgan ko'rgiliklar, adolatsizliklar tufayli iztiroblar olovida qovriladi, eziladi, ayni paytda, so'nggi nafasiga qadar balo-ofatlar, yozuv kuchlar bilan beayov olishadi, mardona turib o'zini halok etadi.

80-90 yillari bo'lgan adabiy baxslarda kurashchan qahramon obrazini badiiy ijodning o'tmish bosqichiga chiqarish, qahramonona xarakter yaratish muammosini esa eskirgan, chaynalgan, suniy hodisa deb atash odat tusini oldi, naq bo'lmasa, «ijobiy qaxramon» degan tushunchani unutish darajasiga borib etildi. Ehtimol, o'sha kezlari adabiyotda keng tarqalgan hayotdan yiroq, yasama qahramonlardan yurak oldirib qo'yish tufayli shunday hol yuz bergandir.

Masalaning yana bir chigal jihatida bor: bir vaqtlar badiiy asar, xususan roman, qissa, drama unda ijobiy qahramonlarning mavjudligiga, qahramonning qanchalik kurashchanligiga qarab baholanar, kurashchanlikdan mahrum xarakter asosiga qurilgan asar esa har jihatdan kamsitilar edi.

Soʻnggi yillarda aks holga duch kelayotirmiz: jabrdiyda, ziddiyatli xarakterlar yaratilgan asarlar shaʼniga tahsin oʻqib, kurashchan qahramonlar mavjud roman, qissalarga esa qandaydir mensimay qarash hollari sodir boʻlayotir. Aslida adabiyot faqat uslub, shakl, talqinlarning emas, unda yaratilgan qahramon obrazlarining xilma-xilligi bilan ham boy va goʻzal. Adabiyot bagʻrida har xil shaxslar, jumladan boshqa turdagi personajlar qatori kurashchan kishilar uchun ham hamisha oʻrin bor. «Adolat manzili» romani mana shu haqiqatni yana bir karra tasdiqlab turibdi.

Suyun burgut obrazi – yozuvchining katta yutugʻi. Burgut qadim turk elining benoyon dashtu qirlarida tugʻilib voyaga etgan dovyurak, shijoatkor xalq bahodirlari sulolasiga mansub. Otasi uloq payti mislsiz shijoat koʻrsatib xalok boʻlgan. Asarda otasiga tortgan oʻgʻlonning oʻspirinlik yillaridagi qoliplarga sigʻmaydigan qiliqlari, oʻt-olovligi, Marjonoyga boʻlgan otashin sevgisi, telbalarcha rashki, gʻaroyib uylanish tarixi, duldul minib, poygada oʻzib qizlarni qoyil qoldirishi, qoʻliga doʻmbira olib, sevgilisini ham qatorga tortib shoir-oqin boʻlib oʻlanlar toʻkib dil-dilidan kuylashi – bular ajib bir shoirona-baxshiyona yoʻsinda ifoda etilgan.

Umuman, yozuvchining bu asarda xalq dostonlariga xos oshiqona va qahramonona-romantik ruh kuchli. Bosh qahramon Suyun burgutning keyingi taqdiri – katta xoʻjalikka bosh boʻlgach, shu el-yurtni deb kuyib-yonishi, choʻpon qoʻrasiga oʻt ketib, xoʻjalik koʻylari xalok boʻlganda ikki fahir choʻlponni qamoqdan olib qolish uchun chekkan zahmatlari, oʻzi qamoqqa

tushganda kallakesar bezorilar bilan mardona olishib ularni yakson etishi; beshafqat, makkor tergovchilar dag'dag'ayu tahdidlari oldida aslo tiz cho'kmay o'z ma'nini baland tutishi, betayin, lattachaynar sobiq mansabdor guvoh bilan yuzlashuvda mardona haq gapi bilan uni hushyor torttirishi va nihoyat, jufti halili Marjonoy sha'ni deb o'linga tik borishi bularning barchasi xalq dostonlari qahramonlari shijoatini yodga soladi.

E'tiborga molik jihati shundaki, tajribali adib Suyun burgut obrazidagi xalq dostonlari qahramonlari shijoatini eslatuvchi bu xildagi favqulodda xislatlarni izchil realistik asosda ruhiy (psixologik) jixatdan tahlil etadi. Asarni o'qir ekansiz, Burgutning barcha hatti-harakatlariga, mushkul vaziyatlardagi shijoatiga to'la shionasiz.

Burgut-o'zbekning oriyatli, tanti o'g'loni. Bunday o'g'lon xar qanday qiyinchilika, ochlikka, yo'qchilikka chidashi mumkin, biroq adolatsizlikka aslo chiday olmaydi. Ayniqsa, insonlik sha'ni, nafsoniyati, g'ururi oyoqosti qilinganida faqat o'zigina emas, butun boshli xalqi sha'ni top-talayotganini, yulg'ich, poraxo'r, tekinxo'rlikda ayblanayotganini ko'rganida o'zini qo'yarga joy topa olmaydi. Burgut o'zining begunohliliga to'la ishonadi, ishongani uchun ham «qaysi yozuqlarim uchun qamashdi meni», degan o'y jismoniy azoblardan ham ko'proq qiynaydi uni.

Ozodlikda yurganida, o't-olov yoshlik kezlarida dahriyona muhit ta'sirida Burgut u dunyoni gox o'ylab, goh o'ylamay, Olloh Taologa birda ishonsa, birda ishonmay yurgan, mana endi dil-dilidan ishonadi, o'tmishdagi nodonliklaridan afsus-nadomat chekadi. Biroq bu foniy dunyoda yuz berayotgan adolatsizliklar tufayli goh isyonkorona o'ylarga toladi: «xalol insonlar do'zax azobiga tashlansa-yu, bu adolatsizlikdan osmon ag'darilib erga

tushmasa! ...Pora bermoq tugul, pora nimaligini bilmagan bir avom ekanimga o'zing shohidsan-ku, yaratgan Egam?», deya hayqiradi.

Asarda yozuv kimsalarning so'nggi hammasi – sevikli umr yo'ldoshi Marjonoy nomusini o'rta qo'yib Burgutni tiz cho'ktirishga chog'langan kezlardagi holati ifodasi g'oyat ta'sirchan, o'ta tabiiy. Oллоhga ishongan Burgut islom aqidasi bo'yicha o'z joniga qasd etish gunoh ekanini biladi, biroq o'sha vaziyatda jondan aziz odamni nomusini himoya qilish uchun o'limdan boshqa chora topolmaydi. Gunohi azim bo'lsa-da, bunaqa xo'rlikdan ko'ra o'limni afzal sanaydi. «Marjonoyni, Oллоh o'zi qovushtirgan jufti haloli, bu yolg'on dunyoga kelib ko'rgan bittayu-bitta quvonchi, baxtu-saodatini och qashqirlarga em qilib» bu janni asrab qolishni mislsiz gunoh sanaydi, «Oллоh o'zi kechirgay», deya o'limga tik boradi.

Burgutning o'limi-mardona o'lim. U o'z insonlik sha'nini yuksaka ko'tarib, sevikli jufti xaloli nomusini saqlab qolib, el-yurt ko'nglida yorqin iz qoldirib bu foni dunyodan ketadi. Burgutning dafn marosimida marhum haqida odatdagi savolga el «Yaxshi odam edi, mard yigit edi Suyun burgut!», deya hayqiradi. «Bu hayqiriqdan Marjonov ham yig'ladi-yov, Marjonov ham silkindi-yov!...» - deb yozadi muallif.

Burgut obrazi, umuman, asardagi kurashchan ruh faqat adabiy hodisa sifatida emas, muhim ma'naviy-ijtimoiy omil sifatida ham kimmatlidir.

Gap shundaki, o'zbeklar yoppasiga itoatkor, mute, tobelikka, qullikka moyil xalq degan uydirma anchadan beri aylanib yurardi. To'g'ri, xalq orasida shunday illatga muhtalo kimsalar bor. Biroq o'z sha'ni, g'ururini baland tutadigan, el-yurt, Vatani, or-nomusi yo'lida, adolat, haqiqat, erk yo'lida jonini, jahonini fido etishga tayyor dovyurak, buyuk Qodiriy singari «xo'rlikdan o'limni tansiq» sanaydigan jasur kishilar ham ko'p.

Asardagi ikki shaxs – Veteran va Lochin obarzari ustida to‘xtalish lozim. Aks holda asar va uning bosh pafosi haqidagi tasavvur kemptikroq bo‘lib qoladi. O.Yoqubovning avvalgi romanlarida sho‘ro odami bo‘la turib inqilob ideallariga, sho‘ro hokimiyatiga sodiq qolgan holda halolligi, haqgo‘yligi, adolatparvarligi, diyonati bilan davriga sig‘magan, nobot muhit zarbalariga bot-bot duch kelganda ham e‘tiqodidan qaytmagan, ko‘pni ko‘rgan nuroniy qariyalar obraz yaratilgan edi. «Diyonat»dagi Normurod domla, «Oqqushlar...»dagi Shorahim shovvoz shular jumlasidan. «Adolat manzili»dagi Veteran o‘sha personajlarni eslatadi. Qizil mustabid tuzimning eng og‘ir gunohlaridan biri shuki, u yaxshi va yomonning, do‘stu dushmanning farqiga bormadi, xatto o‘ziga sadoqatli kishilarning ham qadriga etmadi. Mana shu haqiqat O.Yoqubov asarlarida, jumladan Domla, Shovvoz obrazlarida xam o‘z ifodasini topdi, yangi asardagi Veteran timsolida esa, bu fikr - g‘oya muayyan intihosiga etkazildi.

Butun umri sho‘ro tuzumi xizmatida, jangu jadallarida kechgan, katta lavozimlarda ishlagan qariya kuyovi Burgut boshiga ish tushgunida haqiqat, adolat izlab ma’sul rahbarlarga ro‘para keladi. Bir vaqtlar ko‘plar soyasiga salom beradigan bu odamning endilikda dardini tinglaydigan, tushunadigan zot yo‘q edi sho‘ro idoralarida. Arzini tinglash u yoqda tursin, uni haqorat qiladilar. Shunda qariyaning ko‘zi yarq etib ochiladi. «Yo‘q, sho‘ro hukumati endi yo‘q!... Essiz, bu hukumatga bag‘ishlangan yarim asr umrim!...Bu hukumatni deb, jonini ham, qonini xam ayamagan kaminaday odamlar oyoqosti bo‘lsa-yu, umri bino bo‘lgandan beri uni kalamushday kemirib kelgan muttaxamlarga qolsa kunimiz! Insof nimaligini unutgan, imon va diyonat nimaligini bilmagan shu battal haromxo‘rlar hal qilsa taqdirimizni. Essiz

umrim, essiz umrim...» Veteranning bu xildagi afsus-nadomatlar shunday ko'rgilikka muhtalo necha minglab adashganlarning o'kinch to'la armonlaridir.

Lochin orqali yozuvchi yana bir dovyurak shijoatkor shaxs siymosini gavdalanitirmoqchi bo'ladi. Uning o't-olovligi, sevgisi, haqiqatga, adolatga tashnaligi va boshqa ko'p sifatleri otasi Burgutni eslatadi.

U otasini jonidan ham ortiq yaxshi ko'radi, personajlardan birining so'zi bilan aytganda, ular ota-bola emas, sirdosh, maslakdosh ikki og'ayniga o'xshamaydilar. Otasi qamoqxonada to'palon qilayotganini eshitib: «Suyun burgut burgutligini qipti-da! Otam o'rnida bo'lsam me ham shunday qilardim!»-deydi. Otasi xalokatidan keyin bu nohaqliklarga, xo'rliklarga qarshi isyon tarzida o'zini daxshatli dara qa'riga otishga qaror berishini ham muallif uning shu tarzidagi xarakter mantig'i bilan izohlashga intiladi.

Lochinning so'nggi damlari, xususan do'stlari, sevgilisi Oltinoy bilan goh oshkora, gox pinhona vidolashuv daqiqalari, ota qabri koshidagi iztirobli holatlari, tilovat qilishni bilmasdan o'zidan ranjishi – bularning barchasi ta'sirchan berilgan. Biroq shularga qaramay, Lochin shijoati, harakati kitobxonni kutilgan darajada hayajonga solmaydi, chuqur o'yga toldirmaydi. Balki, bu obraz zimmasidagi g'oyaviy-badiiy yukning engilroq ekani, shaxs talqinidagi biroz jo'nlik, Lochin qismatida «Oq kema»ga taqlidning mavjudligi, puxta o'ylangan, badiy topilma degulik echimning yo'qligi tufayli shunday hol ryay bergandir.

Odil YOqubovning qissachilik sohasidagi ijodiy izlanishlari g'oyat samaralidir. Adib turli yillarda «Bir feleton qissasi», «Tilla uzuk», «Muqaddas», «Ota izidan», «Matluba», «Qaydasan, Morika» kabi asarlar yozib, o'zbek qissachiligi taraqqiyotiga katta ulush qo'shdi.

Odil Yoqubov asarlari – mavzu jihatidan rang-barang, mazmunan boy. Bu asarlarda zamondoshlarimizning murakab va jonli obrazlari chizilgan. Adib asarlarida tugal syujet va yorqin obrazlar yaratib, inson va zamin, vijdon va burch hayot haqida chuqur fikr yuritadi. Xalq hayotidagi ezguliklarning ahamiyatini ko'rsatib, halol ishlab, halol yashash g'oyasini ustalik bilan ifodalaydi. Qing'irlik, nopoklik, xiyonat va sotqinlikni kesish qoralab, ularni badbaxtlikka, yuzi qoralikka qiyos qiladi.

Shunisi muhimki, Odil Yoqubov asarlarida adolat va haqqoniyat, halollik va sadoqatning xiyonat, fitna-fasod, tuhmat, hiyla-yu mahr ustidan g'alabasi quruq bayon etilmaydi. Aksincha, badiiy tarzda, to'laqonli obrazlar vositasida jonli va tabiiy qilib ifodalanadi.

Analitik tasvirga moyillik adib ijodida etuk realizmga xos yana bir fazilatning shakllanishiga olib keladi uning qahramonlari murakkab tabiatli shaxslarga aylana boshladi. Shaxsga xilma-xil yondashish, hodisasining ham musbat, ham manfiy tomonlarini yodda tutishga intilish, odamni osongina «yaxshi» va «yomonga», «ijobiy» yoki «salbiy» qahramonga chiqarib qo'yishdan o'zini tiyish, inson qalbini his etgan holda qalam tebratish – mana shu fazilatlar Odil Yoqubov asarlarida yaqqol ko'rinadi.

Odil Yoqubovning biron asari yo'qki, unda o'zi tug'ilgan qishlog'ining ta'siri ta'biri sezilmasin. Uning romon, hikoya qissalarida tasvirlangan ko'p dilbar manzaralar ajoyib odamlar, munosabatlar Odil Yoqubovning qishloqda ko'rgan manzaralari yaqindan bilgan odamlarini eslab turadi. U avval bolalar uchun kichik qissalar yozib yurdi. SHunda uning "Ikki muhabbat" qissasi chiqdi. Bu hikoyaning ichida erkin prozaga hohish bor edi. Shu samimiy xohish odamlarga yoqdi. "Ikki muhabbat" Odil Yoqubov boshdan kechirayotgan izlanish

jqrayonlarini ham ma'lum darajada aks ettirdi va bir muayyan nuqtaga yetgazdi.

Odil Yoqubov keyinchalik tarixiy romani "Ulug'bek xazinasini" bunda tarix va tarixiy personajlarga zamonaviy yondashuv tajribasini berdi. Voqealar va kuchli ziddiyatlar, inson qismatlari fojialarini realistic uslubda tasvirlash, yoritish, tarix haqiqatini ro'y-rost ochish yo'li ochildi.

"Ulug'bek xazinasini"ning muvaffaqiyatidan so'ng Odil Yoqubov tarix va tarixiy shaxslar haqidagi suhbatlar yana ham kuchaydi. Roman tariximizga yangicha qarash va munosabatni shakillantirdi. Adib bu asarni yozib tugatgach tarixga yana ham qiziqib qoldi. unda katta ijodiy g'oya tug'ildi. "Kohna dunyo" shu tariqa dunyoga keldi. Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Abdulatif obrazlaridan so'ng Beruniy, Ibn Sino, Mahmud G'aznaviy singari ulkan tarixiy shaxslar yorqin siymolari obrazlarining teran badiy mahorat bilan yaratilishi adabiyot dunyosida katta voqea bo'ldi.

Odil Yoqubov 1976 yilda ellik yoshini o'z o'quvchilari, endi davrasi keng kattaygan muxlislari, adabiy jamoatchilik bilan birga qizg'in nishonladi. O'quvchining o'z asarlariga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini ko'rdi. O'sha tantanali ahjumanda u kitobxonning mehr dengizida cho'milarkan, bu mehr javoban to'ldinlanib: "Sizning bu mehr-muhabbatingizga men bundan ham ko'proq va yaxshiroq asarlar yozish bilan javob beraman. Men o'zimni asar yozadigan pallam kelganligini sezyapman" degan edi. Adib rosa to'lgan, ekan vadasini yerda qolmadi. Vadasini xatto oshirib-toshirib ado etdi. O'quvchilarga o'zbek xalqining zamonaviy hayoti va bu hayotning o'tkir muammolari ko'tarilgan "Diyonat", "Oq qushlar oppoq qushlar", "Adolat manzili", "Qaydasan Moriko", "Muzaffar Temur", "Bir koshona sirlari" kabi asarlarni taqdim etdi. CHingiz Aytmatovning 70 yoshini

Bishkekda butun duhyo jamoatchiligi ishtirokida nishonlanganda, uning dunyo tillarida chiqqan asarlari ulkan bir zalga yig'ilib namoyish qilingan edi. Bir odamni shunchalar ko'p kitob egasi bo'lishi mumkinligi odamni hayratga solmay, lol qolmay iloji yo'q edi. Adibimiz Odil Yoqubovga shunday sharaflari qismat nasib bo'layotir. Uning kitoblari jahon tillaridagi tarjimalari jamlansa, shunday shukuhli, fayzli bir uy kitob bo'ladi. Ular bir zahmatkash insonning peshona teri bilan yaratilgan. Mehnat iste'dod insonni qanchalar ulug'lkash, saraftor etishi mumkin.

Odil Yoqubov "Diyonat" romani bu romanda XX asrning 70- yillarida hayotda keng ildiz otgan turg'unlik mafkurasining zararli oqibatlarini zo' ijodiy jasorat va rostgo'ylik bilan ko'rsatgan. Asar qahramonlari Otaqo'zi, Normurod SHomurodov, Abror Shukurov, Vohid Mirobidov, Jamol Bo'riboyev, Oliyaxon (Otaqo'zining xotini), Tohira (Otaqo'zining qizi), Haydar (Otaqo'zining o'g'li), Mehrinisa va boshqa qahramonlar.

Odil Yoqubovga eng katta shuhrat keltirgan asar "Ulug'bek xazinasi" romani bo'ldi. CHingiz Aytmatov bu asar muallifiga yo'llagan maktubida roman to'g'risida shunday yozadi: "Yahshi kitob haqida gapirish maroqli. Bu-yuksak va oliyjanob nasr namunasi/Badiiy quvvati jihatdan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi..."

1960- yillarning oxirlarida matbuotda Ulug'bekning mashhur kutubxonasi taqdiri xususida bahs boshlanadi. Bu bahsda ilgari surilgan xususan, taniqli rus adabiyotshunosi I. Andronikov maqolasida o'rtaga qo'yilgan fikr- mulohazalar astoydil qidirilsa, bu nodir xazina albatta topilajak xususida bashoratlar ko'plar qatori Odil Yoqubovda ham katta qiziqish uyg'otdi. Adib Ulug'bek hayoti va faoliyatiga oid manbalarni, dalillarni

qidiradi, dastlab qissa bitadi, lekin yozuvchining bundan ko'ngli to'lmaydi. Shu tariqa buyuk bir roman vujudga keladi.

Roman Ulug'bek saltanatining so'nggi tahlkali damlari tasviridan boshlanadi. Unda tarixiy hodisalar ifodasiga izchil rioya etilmaydi, ya'ni tarixiy xodisalarni muntazam ravishda aynan o'zidek gavdalantirmaydi. Mushkul damlarda Ulug'bek shogirdi Ali Qushchiga quydagi fikrlarni uqtiradi "Tag'in bir narsadan kelgusi avlodlar Bandai ojizdan hazar qilmasmu, deb qo'rqamen. Mirzo Ulug'bekdek koinot sirlarini ochmoqni tilagan, fozillikni davo etgan mavlono hayhot, oxir-oqibat barcha shoh, barcha taxt sohiblariday saltanatni deb, pushti kamaridan bo'lgan farzandi bilan toj-u taxt talashib durlar-da, degan nom qoldirmoqdin qo'rqaman..."

"Toj-taxt bebaho, ma'naviy xazina esa bezavol" degan hikmat romanda chiroyli betakror badiiy ifodasini topgan. Romanda yozilishicha, shahzoda Abdulatif "Padarkush... toj-u taxt olti oydan oshmaydur..." degan dahshatli fikrni Nizomiy Ganjaviy kitobidan o'qiydi.

Asarda bir tamonda Abdulatif boshliq qora kuchlar Salohiddin zargar, Amir jondor, ayg'oqchi Qashqir, ikkinchi tamonda Ali Qushchi boshliq ma'rifat fidoiylari: Miram Chalabiy, Qalandar Qarnoqiy, usta Temur Samarqandiy, Xurshida bonular faoliyati tasvirlangan. Movlondovdirab Muhiddin esa mudhish voqealar girdobida dovdirab o'z ustozidan yuz o'giradi.

"Yo tavba Bu toj-u taxtda ne sexr, ne sir-asror bor ekankim unga o'ltirgan har bir kimsa darhol o'zgaradi? Odamiylikni umri beqaro bir faqir-u haqir ekanini darhol unutadi? Bu toj-u taxt, bu saltanat hech bir kimsaga vafo qilmasligini yodidan chiqaradi" fikrlar ham shu asarda uchraydi. Asarning boshqa qahramonlari Abdulaziz, Shayxulislom Burhoniddin, Amir Iskandar

barlos, Babo Husayin, Shahzoda Abdulla, Abu Said Mirzo, dorug'a Mironshoh va boshqa qahramonlar obrazi keng yoritilgan.

UMUMIY XULOSALAR

XX asrning so'nggi choragi o'zbek qissachiligi ham miqdoriy ham sifatiy o'zgarishlarni o'z boshidan kechirdi. Milliy nasrimizda xalqnnig hozirgi hayoti, millat ruhiy olamida sodir bo'layotgan turli xildagi evrilishlar o'zining badiiy ifodasini topdi. Mana shu davrda xalqnnig ma'nolariga murojaat qilish orqali millat ongida qaytadan kurtak otib kelayotgan uyg'onish epkiniga alohida ma'naviy oziq berish tamoyili kuchaydi. Ijtimoiy mavzudagi qissalar milliy qissachiligidagi ushbu jarayonning o'ziga xos ijtimoiy-estetik sabablari bor. Birinchidan, real voqalikni o'ta darajada iedallashtirib tasvirlash ijodkorlarni qoniqtirmay qo'ydi. Real voqealik bilan badiiy voqealik o'rtasidagi nomuvofiqlik ijodkorlarni iedal voqealik tasviriga ko'proq tortdi.

O.Yoqubov asarlarida qaxramonlar xarakterlari ruhiyatini tasvirlashda hozirgi zamon qissachiligida keng qo'llanilayotgan xotiralarni eslash, ichki va tashqi monolog, dialog, tush ko'rish, gallyusinatsiya, illyuziya, portret, tabiat tasviri, muloxaza yuritish kabi usullari istifoda etilgan. Shu sababli qissalarda xarakterlar ruhiyatini ochishda assotsiativ tasvir tamoyili etakchilik qiladi. Adibning qator asarlaridagi xarakterlar ruhiyatini ochish faqat asarlarning mazmuniy salmog'idagina emas, balki ularning shakliy xossalarida ham siljishlar yuz berishiga olib keldi. Chunki ruhiyatdagi assotsiatsiyalar qissa syujetiga assotsiativ syujet chiziqlarining kirib kelishiga, bu esa voqealar oqimida retrospektiv tasvirning kuchayishiga sabab bo'ldi. Yozuvchining xarakterlar ruhiyatini tasvirlashdagi muhim yutuqlaridan biri shundaki, u xar bir xarakterning uzluksiz ong oqimini butun murakkabligi bilan ochishga, ushbu jarayonda u ong oqimining eng zaruriy qatlamida turib, ularning butun

ruhiy faoliyatini bajarib boradi. Xarakterlar ruhiyatini tasvirlashda muallif va xarakter nigohining birlashib ketishi tasvirda polifoniyani-ko'p ovozlilikni kuchaytiradi. Polifoniya esa tabiiy hayotiylik deakdir. Ya'na bir muhim jihat, adib ruhiyat tasvirining eng murakkab, engob'ektiv yo'li – xarakterlarning bir-birlarini o'z nigohlari bilan ko'rish, bir paytning o'zida tendensioz va xolis nigoh bilan baholash yo'lidan boradi.

Biz O.Yoqubov asarlari asosida uning individual uslubi va badiiy mahoratini kuzatib, shunday xulosalarga keldik:

- O.Yoqubov asarlari qahramonlari ma'naviy dunyosining milliyligi bilan ajralib turadi;
- O.Yoqubov qahramonlari tasvirida mahaliy kolorit talqini etakchidek taassurot qoldiradi; bu kolorit ayni paytda milliylik xususiyatlarini o'zida jamlovchi fenomen darajasiga ko'tariladi;
- O.Yoqubov asarlarida badiiy niyat va shakl o'zaro uyg'unlik hosil qilgan hodisa sifatida ko'zga tashlanadi;
- badiiy niyat badiiy asarning maydoniga kelishida birlamchi ahamiyat kasb etib, ko'p hollarda qahramonning ruhiy holati tasviri bilan bog'liq holda reallashadi;
- badiiy shakl asarning asosiy komponentlaridan biri bo'lib, u obrazlar tizimi, syujet, kompozitsiya va badiiy nutq orqali yuzaga keladi;
- O.Yoqubov asarlarida realizms va romantizm («Adolat manzili» asari)ning uyg'un shakli mavjud, bu uyg'unlik yozuvchining qissalari kompozitsiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan;
- badiiy asarning shakl jihatdan mukammal ekanligi uning kitobxon qalbiga yo'l topib, shuuriga ta'sir o'tkazishga sababchi bo'ladi;

- O.Yoqubov asarlarining kompozitsiyasida kulminatsion echim va xulosalar bevosita voqealik tasviri orqali berilishi bilan diqqatga sazovordir;
- Yozuvchi so'zbozlikka moyildek ko'rinsada, aslida u badiiy tasvirda har bir so'zga katta ma'no yuklaydi, natijada lakonizm yozuvchi asarlari uslubini belgilashda ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi. T., «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A. Aqliy va ma'naviy salohiyat-yangi jamiyat poydevori. T., «O'zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «O'zbekiston», 1998.

Ilmiy adabiyotlar

1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. T., fan. 1980.
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslar va mezonlari. T., Fan. 2004.
3. Karimov N va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T., O'qituvchi, 1999.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., O'zbekiston, 2002.
5. Istorija uzbekskoy literaturi. 4-5 tom. T., Fan. 1994.
6. Adabiyot va zamon. Maqolalar to'plami. T., AS. 1980.
7. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. T., Ma'naviyat, 1994.
8. Noramtov U. Umidbaxsh tamoyillar. T., Ma'naviyat, 2000.
9. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. T., Yosh gvardiya, 1968.
10. Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi. Maqolalar to'plami. T., Universitet, 1994.
11. Hayot ko'zgusi. Maqolalar to'plami. T., Adabiyot va san'at, 1984.

12. Karimov E., Nazarov B. Adabiy turlar va janrlar. 1 tom. T., Fan. 1991.
13. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. T., Fan. 1973.
14. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T., O'qituvchi, 1983.
15. Mamajonov S. Uslub jilolari. T., Adabiyot va san'at, 1992.
16. Karimov H. Janriy yoki uslub. T., Fan. 1991.
17. Xudoyberganov N. O'z dunyosi, o'z qiyofasi: Adabiy o'ylar. T., «Yosh gvardiya», 1986.
18. Shukurov N. Uslublar va janrlar. T., Adabiyot va san'at. 1973.
19. Niyatov Ch. O'zbek prozasida xarakter problemi. T., Fan, 1984.
20. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. T., Fan. 1973.

Badiiy adabiyotlar.

1. Yoqubov O. Muqaddas. Qissa. T., Adabiyot va san'at, 1996.
2. Yoqubov O. Qaydasan Moriko. Qissalar. T., sharq. 2002.
3. Yoqubov O. Qanot juft bo'ladi. Qissa. T., Adabiyot va san'at. 1986.
4. Yoqubov O. Saylanma. 3 jildlik. 2-jild. T., Adabiyot va san'at. 1986.
5. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. Roman. T., Adabiyot va san'at. 1983.
6. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. Roman. T., Adabiyot va san'at. 1994.

Ilmiy maqolalar

1. Sarimsoqov B. Adabiyotning ijtimoiy tabiati // O‘TA №2, 1995. – B. 46-52.
2. Turdieva K. Tabiat va ma’naviyat // O‘TA, №5, 1990. –B. 49-53.
3. Qurbonov T. Portret yaratish uslubi haqida // O‘TA, 1996, №6, -B. 32-35.

M U N D A R I J A:

I.	Kirish
I BOB.	O.Yoqubov qissalarida xarakter masalsi va psixologik talqin.....
II BOB.	Yozuvchi ijodining o‘ziga xosligi, qahramon muammosi va uslub qirralari.....
II.	Umumiy xulosalar.....
III.	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi I.Q.Ataboevaning «Odil Yoqubov nasrida qahramon xarakteri» mavzusidagi malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Odil Yoqubov qissalari adabiyotshunoslar va tanqidchilar diqqat markazida bo'lib kelgan, o'z vaqtida tegishli bahosini olgan. Adibning «Tengdoshlar» qissasi yaratilgandan beri yarim asr vaqt o'tdi. Albatta, bu davrda O.Yoqubov taniqli yozuvchi, uslubi va ovozigaga ega iste'dodli adib darajasiga etdi. Uning «Muqaddas», «Qanot juft bo'ladi», «Billur qandillar» qissalari yozuvchining ijodiy-estetik evolyusiyasida muhim bosqich vazifasini o'tagan polotnolardir. Bu asarlarning adib uslubi, estetik prinsiplari shakllanishida tutgan o'rini, shakliy-g'oyaviy qirralarini bugungi kun adabiyotshunosligi talablari asosida tadqiq etish ehtiyoji mavjud. Shu jihatdan I.Q.Ataboevaning «O.Yoqubov qissalarida qahramon xarakteri» mavzuidagi bitiruv-malakaviy ishi anchayin dolzarblik kasb etadi.

Mazkur malakaviy ish kirish, asosiy qismni tashkil etuvchi ikkita bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning «O.Yoqubov qissalarida xarakter masalasi va psixologik talqin» deb nomlangan bobida adib ijodiy manerasi, xarakter yaratish usullari tahlil etilgan. Muallif qahramon xarakteri talqini yuzasidan etarlicha nazariy xulosalar chiqara oladi. SHuningdek, ruhiyat tasviri shakllari to'g'risida juda aniq misollar yordamida xarakter yaratishdagi badiiy vazifalari bayon etilgan. Ushbu bobning ikkinchi fasli esa «Badiiy-psixologik talqin mahorati» deb ataladi, unda psixologizm masalasi, uning asardagi g'oyaviy-badiiy vazifasi O.Yoqubov qissalari misolida talqin qilgan va ma'lum muvaffaqiyatlarga erishgan.

Malakaviy ishning ikkinchi bobida yozuvchining individual xususiyatlari, shuningdek o'ziga xoslikning tarkibiy qismi qahramon muammosi tahlil etiladi. O.Yoqubovning «Adolat manzili» asari asnosida badiiy uslub qirralarini kashf etishga harakat qilgan. Natija o'laroq, adib ijodi va uslubiga doir bir qancha xususiyatlar sanab o'tiladi.

I.Q.Ataboevaning malakaviy ishi o'z oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'ygan hamda anik xulosalar chiqargan. Lekin ishda ayrim noqisliklar ham mavjud. Masalan, birinchi bobda ruhiyat tasviri shakllari haqida to'xtalib, ularni nazariy baholab ketavergan. Bu nazariy xulosa misollar bilan ifodalansa, ilmiyligi yanada ortgan bo'lardi. Ikkinchi bobda qahramon ruhiyati tasvirining

tipologik o'rganishi faqat birgina asar qahramonlari qiyosga tortiladi. Turli davrlarda yaratilgan qissalar qiyosga tortilganida adib ijodining evolyusion takomillashuvi ko'zga yaqqol tashlanardi. Albatta bu kabi kamchiliklar ishning umumiy sajiyasiga salbiy ta'sir etmaydi deb o'ylayman.

Umuman, I.Q.Ataboevaning «O.Yoqubov qissalarida qahramon xarakteri» mavzusidagi malakaviy ishi amaldagi me'yorlar talabiga javob beradi va uni himoyaga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

Aralbaev Q.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi I.Q.Ataboevaning «Odil Yoqubov nasrida qahramon xarakteri» mavzusidagi malakaviy ishi to'g'risida ilmiy rahbar

X U L O S A S I

O'zbek adabiyotshunosligida xarakter muammosi doimo dolzarblik kasb etib kelgan. Keyingi paytlarda yozuvchi uslubini tadqiq etuvchi olimlar avvalo xarakter yaratishdagi uslubiy qirralarni aniqlashdan boshlaydi. Vaholanki, xarakter-u yoki bu shaklda ilgari surilayotgan g'oyaning oliy mazmunidir.

I.Q.Ataboevaning «O.Yoqubov nasrida qahramon xarakteri» mavzusidagi malakaviy ishi xam yuqoridagi ishlarning mantiqiy davomidir. Xarakter muammosi hikoyachilik va romanchilik misolida maxsus tadqiq etilgan. Ammo adabiyotshunoslikda qissalar misolida tekshirish kam hodisa hisoblanadi.

Mazkur malakaviy ish kirish (asoslama), o'zaro yaxlit holdagi ikkita bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning birinchi bobida qarashlar O.Yoqubov qissalari misolida tekshirilgan. Bunda yozuvchi mahorati, ruhiyat tasviri shakllari o'z talqini topgan. Ikkinchi bob yozuvchining o'ziga xosligi, qahramon muammosi, uslub qirralari kabi istilohlar haqidadir. Individuallik san'at olamida muhim kategoriyalardan biri. Har bir adibning o'z ovozigaga ega bo'lishi uslubiy takomilning eng asosiy omilidi. Tadqiqotchi shu nuqtai nazardan og'ishmay, mavjud nazariy qarashlar asosida aniq natijalarga erishgan. Ishning umumiy xulosalar qismida erishilgan natijalar sanab o'tiladi. Mazkur ilmiy ish o'z maqsadiga erishgan, oldidagi vazifalarni bajara olgan.

Ishdagi uslubiy va texnik noqisliklarni nazardan soqit qilgan holda, I.Q.Ataboevaning «O.Yoqubov nasrida qahramon xarakteri» nomli bitiruv ishini ijobiy baholayman.

Ilmiy rahbar:

dots. O.Duysenbaev